



**Xilolaxon BAKIROVA**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD*

*E-mail: ms.khilola@bk.ru*

*Pedagogika fanlari doktori, professor D.Xoshimova taqrizi asosida*

### KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUV AMALIYOTIDA INTERAKTIV USLUBLAR VA RAQAMLI PLATFORMALARNI INTEGRATSIYALASH

Аннотация

Mazkur maqolada kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv doirasida o'quv amaliyotida interaktiv uslublar va raqamli platformalarni integratsiyalash masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar kompetensiyalarini shakllantirishda interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning o'rni yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, integrativ ta'lim, interaktiv uslublar, raqamli platformalar, o'quv amaliyoti, ta'lim texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, innovatsion metodlar, ta'lim samaradorligi.

### INTEGRATION OF INTERACTIVE METHODS AND DIGITAL PLATFORMS IN EDUCATIONAL PRACTICE BASED ON A COMPETENCE-BASED INTEGRATIVE APPROACH

Annotation

This article analyzes the integration of interactive methods and digital platforms in educational practice within the framework of a competence-based integrative approach. The study highlights the role of interactive methods and digital technologies in the development of students' competencies in modern education.

**Key words:** Competence-based approach, integrative education, interactive methods, digital platforms, educational practice, educational technologies, professional competence, independent learning, innovative methods, educational effectiveness.

### ИНТЕГРАЦИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В УЧЕБНОЙ ПРАКТИКЕ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье анализируется интеграция интерактивных методов и цифровых платформ в учебной практике в рамках компетентностно-ориентированного интегративного подхода. В исследовании раскрывается роль интерактивных методов и цифровых технологий в формировании компетенций студентов в условиях современного образования.

**Ключевые слова:** Компетентностный подход, интегративное обучение, интерактивные методы, цифровые платформы, учебная практика, образовательные технологии, профессиональная компетенция, самостоятельное обучение, инновационные методы, эффективность образования.

**Kirish.** Zamonaviy tarjima ta'limida interaktiv metodlar va raqamli platformalar integratsiyasi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va sohaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning faolligini oshirib, ularni amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, Simulation-based Translation Tasks, Gamification with Translation Quests, Peer Review with AI Assistance, Live Multilingual Subtitling, Corpus-based Problem Solving, Virtual Reality (VR) Translation Scenarios kabi interaktiv metodlar tarjima vazifalarini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi, bu esa nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Raqamli platformalar – masalan, Google Classroom, Moodle, Edmodo, shuningdek, tarjima amaliyotiga moslashtirilgan SDL Trados Studio, Memsource, Smartcat kabi vositalar - o'quvchilarga real ish muhiti sharoitida ishlash tajribasini taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar onlayn hamkorlik, loyiha asosida ishlash, terminologik bazalar bilan ishlash va sifat nazorati jarayonlarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Integratsiya jarayonida muhim jihatlardan biri – o'quv dasturining raqamli resurslar bilan uyg'unlashtirilgan holda ishlab chiqilishi. Bu nafaqat o'quv materiallarining turli formatlarda (matn, audio, video, interaktiv topshiriqlar) taqdim etilishini, balki o'quv jarayonini monitoring qilish va talabalarning natijalarini aniq baholash imkonini ham beradi. Shu bilan birga, mobil ilovalar va

cloud-xizmatlar orqali 24/7 formatda ta'lim resurslariga kirish imkoniyati ta'limni yanada moslashuvchan qiladi.

Kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv mazkur jarayonning metodologik poydevorini tashkil etadi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, o'quv jarayoni til ko'nikmalari, sohaviy bilimlar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini birlashtirgan holda tashkil etiladi [4]. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim talabalarni nafaqat nazariy bilimlarga, balki aniq kasbiy vazifalarni bajarish malakalariga ega bo'lishga tayyorlaydi.

Integrativ yondashuv – bu turli xil bilim va metodologiyalarni birlashtirgan, ko'p qirralilikni hisobga olgan yondashuv bo'lib, har bir elementning o'zaro bog'lanishini va birbirini to'ldirishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuvda turli sohalar yoki fanlar o'rtasida integratsiya qilinadi, ya'ni bir nechta nazariyalar, metodlar, usullar yoki amaliyotlar birlashtiriladi va ularning hamkorlikda ishlashi ta'minlanadi. Integrativ yondashuv ko'pincha kompleks va murakkab masalalarni hal qilishda qo'llaniladi, chunki u turli nuqtai nazar va yondashuvlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Integrativ yondashuvning asosiy xususiyatlari:

1. Multidisiplinarlik – turli fanlar yoki sohalarining bilimlarini birlashtirish;
2. O'zaro bog'lanish – har bir elementning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi;
3. Komplekslik – murakkab masalalarni tizimli tarzda yondashish;

4. Moslashuvchanlik – turli vaziyatlarga mos ravishda yondashuvni sozlash imkoniyati;

5. O'rganish va rivojlanish – doimiy o'zgarishlarga javob berish va yangi bilimlar yaratish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv hamda interaktiv uslublar va raqamli platformalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalasi so'nggi yillarda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariy asoslari Yevropa ta'lim modeli doirasida shakllangan bo'lib, u talabalarda bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarni rivojlantirishga urg'u beradi. Mazkur yondashuvni rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO va Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ishlarida ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali baholash zarurligi asoslab berilgan.

Integrativ yondashuv masalasi esa fanlararo bog'liqlikni ta'minlash va bilimlarni kompleks tarzda o'zlashtirish bilan izohlanadi. Tadqiqotchilar bu yondashuv orqali talabalarining tizimli fikrlashini rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, integrativ yondashuv zamonaviy kasbiy faoliyat talablariga moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Interaktiv uslublar bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarda (jumladan, kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim nazariyalari doirasida) talabalar faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ta'lim jarayonini jonlantirish

imkoniyatlari keng yoritilgan. Muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va hamkorlikda o'rganish metodlari talabalarining amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Raqamli platformalar va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni ham alohida tadqiq etilgan. Zamonaviy olimlar raqamli ta'lim muhitining afzalliklari sifatida ta'lim jarayonini individuallashtirish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim resurslariga tezkor kirishni ta'minlashni ko'rsatib o'tadilar. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyalash pedagogik yondashuvlarni yangilashni ham talab etadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham ushbu masalalarga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, ularda interaktiv metodlar va raqamli vositalarning o'quv jarayonidagi samaradorligi, talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Ayniqsa, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv uslublar va raqamli platformalarni integrativ yondashuv asosida kompleks tarzda qo'llash masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zaruratini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'limda integrativ yondashuvda turli fanlar va sohalarining o'zaro bog'lanishini ta'minlashga harakat qilinadi, bu o'quvchilarga yanada kengroq va tizimli bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Bu, masalan, matematikani va fizikaning o'zaro bog'lanishini yoki tarixni va adabiyotni birlashtirishni anglatishi mumkin.



Bizning vaziyatimizda integrativ komponent sifatida lingvistik tayyorgarlik sohaga oid bilimlar va zamonaviy tarjima texnologiyalari – terminologik bazalar, parallel matn korpuslari, CAT-tools (Trados, MemoQ va boshqalar) hamda onlayn hamkorlik platformalari bilan ishlash amaliyoti bilan uyg'unlashtiriladi [1, 2]. Bu jarayonda talaba real ish sharoitiga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda amaliy topshiriqlarni bajarish orqali nafaqat tarjima mahoratini, balki axborot izlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Quyida 1 – rasmda kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv asosida natijaga erishish bosqichlari aks ettirilgan (1 – rasmga qarang).

1 – rasm. Kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv tarkibi

I – jadval

Kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv asosida innovatsion metodlar va raqamli platformalarning integratsiyasi

Interaktiv metod	Mos raqamli platforma	Platforma havolasi	Kutilayotgan natija
Simulation-based Translation Tasks	Memsources, Smartcat, Trello, Asana,	<a href="https://www.memsource.com">https://www.memsource.com</a> , <a href="https://trello.com">https://trello.com</a> ,	Ish jarayonini boshqarish, vaqtni taqsimlash va jamoada ishlash ko'nikmalari
Gamification with Translation Quests	Classcraft, Kahoot!, Quizizz, quizlet, LearningApps.org	<a href="https://www.classcraft.com">https://www.classcraft.com</a> , <a href="https://kahoot.com">https://kahoot.com</a> , <a href="https://quizlet.com/">https://quizlet.com/</a> , <a href="https://learningapps.org/index.php?page=5&amp;s=&amp;category=2">https://learningapps.org/index.php?page=5&amp;s=&amp;category=2</a>	Rag'batlantirish orqali motivatsiya va doimiy ishtirok
Peer Review with AI Assistance	ChatGPT, DeepL Write	<a href="https://chat.openai.com">https://chat.openai.com</a> , <a href="https://www.deepl.com/write">https://www.deepl.com/write</a>	Tanqidiy fikrlash va sifat tahlil qilish ko'nikmasi

Live Multilingual Subtitling	Amara, YouTube Live Subtitles	<a href="https://amara.org">https://amara.org</a> , <a href="https://support.google.com/youtube/answer/6373554">https://support.google.com/youtube/answer/6373554</a>	Tezkor tarjima va texnik vositalar bilan ishlash ko'nikmasi
Corpus-based Problem Solving	AntConc, Sketch Engine	<a href="https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/">https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/</a> , <a href="https://www.sketchengine.eu">https://www.sketchengine.eu</a>	Korpus lingvistikasidan amalda foydalanish
Virtual Reality (VR) Translation Scenarios	Mozilla Hubs, ENGAGE VR	<a href="https://hubs.mozilla.com">https://hubs.mozilla.com</a> , <a href="https://engagevr.io">https://engagevr.io</a>	Immersiv o'quv tajribasi va stress ostida ishlash ko'nikmasi

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy tarjima ta'limida interaktiv metodlar va raqamli platformalarning uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy metodlar bilan bir qatorda kam qo'llaniladigan, ammo yuqori samaradorlikka ega bo'lgan innovatsion yondashuvlar talabalarning kasbiy va texnik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida sohaviy tarjima o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan oltita innovatsion metod, ularning tashkil qilish tartibi, afzalliklari, ehtimoliy kamchiliklari va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

#### 1. Simulation-based translation tasks

Simulation-based Translation Tasks metodining ilmiy poydevori konstruktivizm va Task-Based Learning (vazifaga asoslangan ta'lim) yondashuvlariga tayangan. Konstruktivizmga ko'ra, talaba bilimni real muhitda faoliyat orqali o'zlashtiradi, Task-Based Learning esa o'qitish jarayonini real hayotdagi vazifalar atrofida tashkil etadi. Tarjima ta'limida bu yondashuvni qo'llash talabalarga haqiqiy "mijoz – loyiha – natija" janrida ishlashni o'rgatadi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida talabalarga real ish jarayoniga o'xshash vazifa beriladi: mijozning texnik topshirig'i, aniq vaqt chegarasi (deadline) va soha bo'yicha kontekst asosida ishlash. Jarayon bosqichma-bosqich tashkil qilinadi: brief olish → tarjima qilish → tekshirish → yakuniy natijani topshirish. Ish muhiti sifatida Memsources <https://phrases.com/> yoki Smartcat <https://www.smartcat.com>, loyiha boshqaruvi uchun esa Trello <https://trello.com>, yoki Asana <https://asana.com> platformalari tavsiya etiladi.

Bu metodlarning afzalliklari – talabalar real ish sharoitini his qiladi, loyihani boshqarish va vaqtni rejalashtirish ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Kamchiliklari esa texnik platformalarni o'rganish uchun qo'shimcha vaqt talab etiladi. Buning yechimi sifatida darsning birinchi qismida qisqa "platformadan foydalanish" bo'yicha amaliy trening o'tkazish tavsiya etiladi.

#### 2. Gamification with translation quests

Gamification with Translation Quests metodining asosida motivatsion pedagogika va Self-Determination Theory (o'z-o'zini belgilash nazariyasi) yotadi. Bu nazariyaga ko'ra, odamlar ichki (qiziqish, rivojlanish) va tashqi (rag'bat, mukofot) motivatsiya orqali faoliyat yuritadi. Geymifikatsiya bu ikki omilni uyg'unlashtirib, tarjima jarayonini qiziqarli qiladi. Tarjima ta'limida Classcraft, Kahoot!, Quizizz, Quizlet, LearningApps.org kabi platformalar o'quvchilarni bosqichma-bosqich murakkablashadigan "missiyalar" orqali faollashtiradi va malakalarini oshiradi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida tarjima topshiriqlari "missiya" yoki "bosqichli sarguzasht" shaklida tuziladi. Har bosqich yakunida talabaga ball, badge yoki yangi daraja beriladi. Ushbu jarayon Classcraft <https://www.classcraft.com>, Kahoot! <https://kahoot.com>, Quizizz <https://quizizz.com>, Bamboozle <https://www.bamboozle.com/>, LearningApps.org <https://learningapps.org/>, quizlet <https://quizlet.com/> kabi platformalar orqali gamifikatsiya qilinadi. Mazkur metodlarning afzalliklari – talabalarning motivatsiyasini oshiradi, bellashuv muhiti ularni darsga faol jalb etadi. Kamchiliklari esa o'yin elementlari haddan tashqari ko'p bo'lsa, darsning akademik maqsadi yo'qolishi mumkin. Buning yechimi sifatida gamifikatsiyani 30–40% darajada cheklash, asosiy e'tiborni o'quv maqsadlariga qaratish lozim bo'ladi.

#### 3. Peer review with AI assistance

Peer Review with AI Assistance metodining poydevori Kollaborativ ta'lim va metakognitiv yondashuvdir. Kollaborativ ta'limda talabalar bir-biridan o'rganadi, metakognitiv yondashuv esa o'z ishini tahlil qilish va takomillashtirishni o'rgatadi. Tarjima ta'limida ushbu metod yordamida talabalar bir-birining ishini tahlil qilib, stilistik va grammatik xatolarni aniqlaydi. Bunda ChatGPT yoki DeepL Write kabi AI vositalarini qo'llash nafaqat xatolarni tezroq topishga, balki zamonaviy tarjima texnologiyalaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Mazkur metod yordamida talabalar bir-birining ishini tekshiradi va baholaydi. SI vositalar – masalan, ChatGPT <https://chat.openai.com>, yoki DeepL Write <https://www.deepl.com/write> – yordamida stilistik va grammatik tahlil qilinadi. Yakunida o'qituvchi umumiy xulosani beradi va xatolar ustida ishlashni muhokama qiladi. Mazkur metodlarning afzalliklari – talabalar tanqidiy fikrlashni o'rganadi, SI texnologiyalaridan samarali foydalanish malakasini rivojlantiradi. Kamchiliklari esa SI tavsiyalari ba'zan mukammal bo'lmashligi mumkin. Buning yechimi sifatida SI natijalarini doimiy ravishda inson omili bilan tekshirish lozim bo'ladi.

#### 4. Live Multilingual Subtitling

Live Multilingual Subtitling metodining asosida kommunikativ yondashuv va media asosida ta'lim (Media-based Learning) yotadi. Kommunikativ yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatishni nazarda tutadi, Media-based Learning esa multimedia resurslaridan foydalanib, bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Tarjima ta'limida real vaqt rejimida subtitrlar qo'yish texnik vositalar bilan ishlash ko'nikmasini oshiradi. Bu jarayon Amara yoki YouTube Live Subtitles platformalari yordamida tashkil qilinadi.

Mazkur metodni tashkil qilish tartibiga ko'ra talabalar jonli video, webinar yoki intervyuni real vaqt rejimida tarjima qiladi va subtitrlar qo'shadi. Buning uchun Amara <https://amara.org>, yoki YouTube Live Subtitles <https://support.google.com/youtube/answer/6373554> platformalari ishlatiladi. Mashg'ulot yakunida subtitrlar tahrir qilinadi.

Mazkur metodlarning afzalliklari – tezkor tarjima qilish va texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi, talabalarni stress ostida ishlashga tayyorlaydi. Kamchiliklari esa tez yozish va tarjima qilish malakasi bo'lmaganlar uchun jarayon murakkab bo'lishi mumkin. Buning yechimi sifatida avval yozma subtitrlar mashqlari bilan boshlash, keyin jonli subtitrlar mashqlariga o'tish tavsiya etiladi.

#### 5. Corpus-based Problem Solving

Corpus-based Problem Solving metodining ilmiy poydevori Data-Driven Learning (ma'lumotga asoslangan ta'lim) va analitik tilshunoslik yondashuvidir. Data-Driven Learning'da talaba haqiqiy til korpuslari bilan ishlash orqali bilim oladi va tilni tabiiy kontekstdagi qo'llanilishini tahlil qiladi. Tarjima ta'limida AntConc yoki Sketch Engine kabi korpus vositalaridan foydalanish terminologiya izlash, frazeologik birliklarni topish va kontekstga mos tarjima strategiyasini ishlab chiqishda juda samarali.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida talabalarga maxsus korpus (matn bazasi) beriladi. Ular termin, frazeologizm yoki soha bo'yicha birlikni topib, tarjima strategiyasini ishlab chiqadilar. Bu jarayonda AntConc <https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/>, yoki Sketch Engine <https://www.sketchengine.eu> dasturlari qo'llaniladi. Mazkur metodlarning afzalliklari – korpus lingvistikasidan amaliy foydalanish ko'nikmasi shakllanadi, termin izlash tezligi oshadi. Kamchiliklari esa korpus vositalarini ishlatish dastlab qiyin bo'lishi mumkin. Buning yechimi sifatida darsning dastlabki 2–3

mashg'uloti "korpus bilan ishlash" bo'yicha o'quv mashqlariga bag'ishlash tavsiya etiladi.

#### 6. Virtual Reality (VR) Translation Scenarios

Virtual Reality (VR) Translation Scenarios metodining asosida Experiential Learning Theory (tajriba asosida o'rganish nazariyasi) yotadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quv jarayoni to'rt bosqichdan iborat: tajriba → tahlil → umumlashtirish → qo'llash. VR muhiti bu jarayonni yanada jonli va real qiladi. Tarjima ta'limida Mozilla Hubs yoki ENGAGE VR kabi platformalarda og'zaki va yozma tarjima senariylarini bajarish talabalarni stress ostida ishlash va madaniyatlararo muloqot olib borishga tayyorlaydi.

VR muhitida tarjima talab qilinadigan real sahnalar yaratiladi (masalan, konferensiya, muzey ekskursiyasi, biznes uchrashuvi). Mozilla Hubs <https://hubs.mozilla.com>, yoki ENGAGE VR <https://engagevr.io> platformalari orqali talabalar VR ichida og'zaki yoki yozma tarjima qiladi. Mazkur metodlarning afzalliklari – immersiv o'quv muhiti yaratadi, madaniyatlararo muloqot va stress ostida ishlash ko'nikmasini oshiradi. Kamchiliklari esa VR uskunalar va texnik tayyorgarlik talab etiladi. Buning yechimi sifatida dastlab VR-simulyatsiya videolaridan foydalanib, so'ng to'liq VR tajribasiga o'tish tavsiya etiladi.

**Tadqiqot natijalari.** Mazkur interaktiv metodlarni qo'llashda bir qator yutuqlar bilan birga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial muammolar ham yo'q emas albatta. Quyida shunday muammolar va ularni bartaraf etish uchun yechimlar tavsiya etamiz.

Simulation-based Translation Tasks metodida talabalar Memsources yoki Smartcat kabi texnik platformalar bilan ishlashda qiynalishi mumkin. "Deadline" bosimi yangi o'quvchilar uchun stress darajasini oshiradi, guruh ishida esa vazifalar teng taqsimlanmasligi ehtimoli mavjud. Buni bartaraf etish uchun darsdan oldin qisqa texnik trening o'tkazish, vazifalarni kichik bosqichlarga ajratish va rollarni aniq belgilash tavsiya etiladi.

Gamification with Translation Quests metodida o'yin elementlari haddan oshsa, darsning ilmiy qismi e'tibordan chetda qolishi mumkin. Rag'bat (ball, badge) olish maqsadi mazmun sifatidan ustun bo'lib qolishi va kamroq faol talabalar doimiy "yutqazuvchi" holatga tushishi ehtimoli bor. Buni oldini olish uchun gamifikatsiyani 30–40% darajada cheklash, ballarni faqat sifatli ishlar uchun berish va rag'bat mezonlariga "hamkorlik" hamda "ijodkorlik" kabi ko'rsatkichlarni kiritish foydali bo'ladi.

Peer Review with AI Assistance metodida ChatGPT yoki DeepL Write kabi sun'iy intellekt vositalari ba'zan noto'g'ri tavsiyalar berishi mumkin. Talabalar AI fikriga ortiqcha ishonib, o'z tahlilii fikrlashini chetlab o'tishi, baholash jarayonida esa

sub'ektivlik kuchayishi mumkin. Yechim sifatida AI'ni faqat qo'shimcha vosita sifatida qo'llash, baholash mezonlarini oldindan belgilash va bir ishni kamida ikki talabaga tahlil qildirish tavsiya etiladi.

Live Multilingual Subtitling metodida tezkor yozish malakasi past bo'lgan talabalar qiynalishi, Amara yoki YouTube Live Subtitles kabi platformalarda texnik nosozliklar bo'lishi va real vaqt rejimida termin izlash qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun avval yozma subtitr mashqlari bilan boshlash, texnik xazira variantlarini tayyorlash va termin bazasini oldindan shakllantirish kerak.

Corpus-based Problem Solving metodida AntConc yoki Sketch Engine kabi vositalarni o'rganish dastlabki bosqichda murakkab bo'lishi mumkin. Shuningdek, terminologiya bazasini noto'g'ri talqin qilish xavfi ham mavjud, ba'zan korpus ma'lumotlari yangilanmagan bo'ladi. Buning uchun darsning bir qismini texnik vositalarni o'rganishga ajratish, natijalarni boshqa manbalar bilan solishtirish va doim yangilanadigan korpuslardan foydalanish tavsiya etiladi.

Virtual Reality (VR) Translation Scenarios metodida Mozilla Hubs yoki ENGAGE VR kabi platformalar uchun maxsus texnik jihozlar talab etiladi. Ba'zi talabalar VR muhiti sababli noqulaylik (motion sickness) his qilishi mumkin, internet uzilishi esa jarayonni to'xtatadi. Yechim sifatida avval VR videolarida mashq qilish, talabalarni VR'dan foydalanishga tayyorlash va barqaror internet ulanishini ta'minlash kerak.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan har bir interaktiv metodning ilmiy asoslari va nazariy poydevori ularning amaliy qo'llanilishida uchrashi mumkin bo'lgan muammolar va tavsiya etilgan yechimlar bilan uyg'un holda ko'rib chiqildi, bu esa metodlarni tarjima ta'limida samarali joriy etish uchun kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu metodlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish talabalarda sohaviy tarjima bo'yicha nafaqat lingvistik, balki texnik, tahlilii va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Har bir metodning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olib, ularni dars rejalariga moslashtirish o'qituvchidan yuqori darajada rejalashtirish, moslashuvchanlik va zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llashni talab etadi. Shu yo'sinda interaktiv uslublar va raqamli platformalar integratsiyasi ta'lim jarayonini innovatsion va bozor talablariga mos qiladi.

Shunday qilib, interaktiv uslublar va raqamli platformalar integratsiyasi sohaviy tarjima ta'limida innovatsion yondashuv sifatida nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki bozor talablariga mos malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonini ham tezlashtiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bowker L. Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. – Ottawa: University of Ottawa Press, 2015. – 240 p.
2. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 301 p.
3. Jonassen D.H. Designing Constructivist Learning Environments // In: Reigeluth C. M. (ed.) Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. – P. 215–239.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.